Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo sohasiga to'g'ri keladi – 153 370 ta. Shuningdek, sanoat sohasida 59 520 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 34 881 ta, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida 30 374 ta hamda qurilish sohasida 30 343 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

2025-yil yanvar–dekabr oylarida respublikada 87,8 mingta yangi korxona va tashkilot tashkil etildi. Ulardan 82,4 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 18 164 tani tashkil etdi. Ularning 4 247 tasi qo'shma korxonalar, 13 917 tasi esa xorijiy korxonalardir.

2024-yil davomida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 108 720,5 mlrd so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi (1-rasm).



1-rasm. Yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo'yicha dinamikasi¹⁰

9 Андрюшкевич О.А. Особенности современного развития аутсорсинга в России / О.А. Андрюшкевич, И.М. Денисова // ЦЭМИ. Анализ и моделирование экономических процессов: сб. ст. – 2011. – Вып. 8. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.cemi.rssi.ru/publication/e-publishing/sborn11.pdf>

10 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi. www.stat.uz



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yakuniy moliyaviy natijaning asosiy qismi ishlab chiqaruvchi sanoatga to'g'ri keldi – 72 309,8 mlrd so'm. Shuningdek, tashish va saqlash sohasida 10 005,8 mlrd so'm, savdo sohasida 6 155,0 mlrd so'm, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 5 538,3 mlrd so'm, elektr energiyasi, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 5 208,5 mlrd so'm hamda moliya va sug'urta faoliyati sohasida 3 418,0 mlrd so'm miqdorida foyda shakllangan.

2024-yilda 2023-yilning mos davriga nisbatan foydaning sezilarli o'sishi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida (22 146,9 mlrd so'm), "O'zavtosanoat" AJda (734,1 mlrd so'm) hamda "O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari" uyushmasida (655,0 mlrd so'm) qayd etildi.


Shu bilan birga, 2024-yil yakunlari bo'yicha 2023-yilga nisbatan ayrim yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalar hajmining qisqarishi kuzatildi. Jumladan, "O'ztransgaz" AJda 3 574,4 mlrd so'mga, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasida 1 546,0 mlrd so'mga hamda "O'zkimyosanoat" AJda 783,9 mlrd so'mga kamayish qayd etilgan (1-jadval).

1-jadval. Yirik sanoat korxonalarida foydaning o'sishi va kamayishi¹¹

Foydaning o'sishi	mlrd.s.	Foydaning kamayishi	mlrd.s.
Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi	22146,9	"O'ztransgaz" AJ	3574,4
"O'zavtosanoat" AJ	734,1	"O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi	1546,0
"O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari" uyushmasi		"O'zkimyosanoat" AJ	783,9

Hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijaning asosiy qismi Navoiy viloyatiga to'g'ri keldi – 47 766,1 mlrd so'm (jami foydaning 43,9 foizi). Shuningdek, Toshkent shahri – 33 538,5 mlrd so'm (30,8 foiz), Toshkent viloyati – 14 879,2 mlrd so'm (13,7 foiz), Andijon viloyati – 4 099,8 mlrd so'm (3,8 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi – 3 392,4 mlrd so'm (3,1 foiz) hamda Qashqadaryo viloyati – 662,4 mlrd so'm (0,6 foiz) hissasiga to'g'ri keldi¹².

Eng yuqori moliyaviy natija qayd etgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimiga to'g'ri kelib, 60 702,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ – 8 161,4 mlrd so'm, "O'zavtosanoat" AJ – 5 462,8 mlrd so'm, "O'ztransgaz" AJ – 2 908,8 mlrd so'm hamda "O'zbekneftgaz" AJ – 1 938,0 mlrd so'm miqdorida foyda qayd etgan (2-rasm).



2-rasm. Eng yuqori foyda ko'rib ishlayotgan korxonalar¹³

Tahlil qilingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sanoat korxonalari quyidagilarni namoyon etadi:

1. kapitalning yuqori konsentratsiyasi, chunki korxonalarning asosiy qismi sotilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning yarmidan ko'pini ishlab chiqaradi. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismining oz sonli korxonalarda konsentratsiyalashuvi kapitalning yuqori darajada konsentratsiyalashganini anglatadi hamda iqtisodiy subyektlar rivojlanishidagi nomutanosiblikni ifodalaydi;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.//www.stat.uz

¹² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.//www.stat.uz

¹³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.//www.stat.uz



2. an'anaviy ravishda rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotining eng muhim institutlaridan biri hisoblangan kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotida muhim iqtisodiy va ijtimoiy rol o'ynamoqda, YalMning 51 foizi, sanoat ishlab chiqarishining 33 foizi, qishloq xo'jaligining 95 foizi, qurilish ishlarining 78 foizi, xizmatlarning 50 foizi ushbu sohaga to'g'ri keladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga asosanib, O'zbekiston iqtisodiyotini yirik biznesning ham ahamiyati yuqori bo'lgan, asosan yirik biznes bilan kooperatsiya aloqalariga tayanadigan kichik biznes iqtisodiyoti sifatida ta'riflash mumkin, u quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- kapital konsentratsiyasining oshib borayotganligi;
- yirik korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirish zarurati.

O'zbekistondagi hozirgi iqtisodiy vaziyat bir qator ijtimoiy va institutsional omillar bilan tavsiflanadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishning innovatsion usullariga o'tish jarayonini jadallashtirish zaruratini ko'rsatadi. Taniqli belaruslik tadqiqotchi P.S. Lemeshchenkoning fikriga ko'ra, "institutsional bo'shliqlar iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilishi, natijada mavjud ishlab chiqarish va texnik salohiyatni amalga oshirish jarayonini sekinlashtirishi mumkin"¹⁴.

Mamlakatda yirik biznes asosiy soliq to'lovchilar ekani haqidagi fikrlar keng tarqalgan. Biroq ushbu da'voni birmoqlama talqin qilish maqsadga muvofiq emas, chunki byudjet daromadlari tuzilmasini tahlil qilish masalani kompleks yondashuv asosida baholash zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, 2025-yilda O'zbekistonda davlat byudjetining umumiy jamg'arma daromadlari tuzilmasida asosiy soliqlar va to'lovlarning ulushi quyidagicha shakllangan:

- korporativ daromad solig'i – 29%;
- QQS (qoldiq) – 18%;
- jismoniy shaxslarning daromad solig'i – 17%;
- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar – 10%;
- aksiz solig'i – 8%;
- bojxona bojlari – 7%;
- mol-mulk va yer solig'i – 5%;
- oborot solig'i va boshqa soliqlar hamda to'lovlar – 6%.

Mazkur ma'lumotlar byudjet daromadlarining salmoqli qismi soliqlar va majburiy to'lovlar hisobidan shakllanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yirik biznes korxonalari budjet tushumlarida muhim o'rin tutishi tabiiy bo'lsa-da, soliq tushumlari tarkibida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar ham faol ishtirok etayotganini inobatga olish lozim.

2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha debitor qarzdorlikning eng katta qismi aksiyadorlik jamiyatlariga to'g'ri kelib, 167 345,1 mlrd so'mni yoki jami debitor qarzdorlikning 54,4 foizini tashkil etgan. Shuningdek, kreditor qarzdorlikning eng katta qismi mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar hissasiga to'g'ri kelib, 170 603,1 mlrd so'mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 52,3 foizini tashkil etgan.

Taqdim etilgan ma'lumotlar yirik mahalliy sanoat korxonalarida moliyaviy natijalarni barqarorlashtirish va boshqaruv samaradorligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish orqali byudjet daromadlarini kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yanada samarali hal etish imkoniyatlari mavjud.

2-jadval. Korxona va tashkilotlarning mulkchilik shakli bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzdorligi tarkibining holati (2024-yil 1-dekabr holatiga, % da)

Mulkchilik shakllari bo'yicha	Debitorlik qarzdorligi		Kreditorlik qarzdorligi	
	Davlat mulki	Xususiy mulk	Davlat mulki	Xususiy mulk
Xaridor va buyurtmachilar	1,7	98,3	1,6	98,4
Yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	1,9	98,1	1,5	98,5
Soliqlar va byudjetga yig'imlar bo'yicha avanslar to'lovlari va maqsadli davlat jamg'armalari	3,8	96,2	1,5	98,5

14 Лемешенко П.С. Институты как условие и результат инновационного развития экономики / П.С. Лемешенко // Инновационное развитие экономики России: национальные задачи и мировые тенденции: материалы междунар. науч. конф. Москва, 23- 25 апр. 2008 г. / МГУ им. М.В.Ломоносова. – М., 2008. – С. 8 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.econ.msu.ru/cmt2/lib/a/1158/file/Lemeshenko-31.pdf/>.



Bu muammolarning yechimi yirik va kichik biznes subyektlari o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish hamda, avvalo, ularning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini oshirish bilan bog'liq. Kichik biznes barqaror iqtisodiy kuchga aylanganda, yirik mahalliy biznes global iqtisodiy rivojlanishning yetakchi tendensiyalaridan biri bo'lgan kichik biznes bilan sanoat hamkorligi jarayonlariga faol qo'shilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, logistika va savdo bilan bog'liq ikkilamchi funksiyalarni kichik biznes va tadbirkorlarga o'tkazish orqali yirik korxonalar o'z resurslari, kuchlari va e'tiborini asosiy hamda istiqbolli faoliyat yo'nalishlariga jamlashi mumkin. Bu esa operatsion samaradorlikni oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Kichik biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun tashkiliy, axborot va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini izchil takomillashtirish zarur. Hozirgi sharoitda kredit resurslari kichik biznesga bank muassasalari tomonidan belgilangan mezonlar asosida ajratilmoqda. Mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlik kichik biznesni qo'shimcha moliyaviy mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlash imkoniyatini kengaytiradi. Kichik biznes rivojlanish uchun yetarli ichki salohiyatga ega bo'lib, yirik biznes bilan hamkorlik qilishdan manfaatdorligi yuqori. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik korxonalar tomonidan kichik biznes subyektlariga buyurtmalar berish tizimi ularni qo'llab-quvvatlashning samarali vositalaridan biridir.

Yirik mahalliy korxonalarning kichik biznes bilan hamkorlik aloqalariga qiziqishini kuchaytirish masalasi dolzarbdir. Zamonaviy sharoitda bunday aloqalarning maqsadga muvofiqligini ilmiy asoslash zarur, chunki sanoat kooperatsiyasining ijobiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, avvalo, yirik biznes manfaatlariga ham xizmat qiladi.

Sanoat kooperatsiyasining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagi amaliy yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

- yirik sanoat korxonalarning ishlab chiqarish va boshqaruv tuzilmasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish;

- zamonaviy boshqaruv yondashuvlari va biznes-jarayonlarni boshqarish tizimlarini joriy etish.

“Biznes jarayonlari”ni aniq belgilash orqali mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash va tarqatish bosqichlarida yuzaga kelayotgan tashkiliy cheklovlar aniqlanadi. Bu esa mazkur jarayonlarni optimallashtirish hamda ayrim funksiyalarni zarur professional bilim va tajribaga ega bo'lgan uchinchi tomon pudratchilariga o'tkazish (outsourcing) imkonini beradi.

Ko'pgina yirik mahalliy korxonalar (mexanik, metallurgiya va kimyo sanoati) ishlab chiqarish faoliyati ma'lum tarixiy sharoitlarda shakllangan bo'lib, hozirgi bosqichda ularni modernizatsiya qilish zarurati mavjud. Shu nuqtai nazardan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. aktivlarni yangilash, asosiy va yordamchi ishlab chiqarishni, omborxonalar, transport tizimi, oqava suvlarni tozalash inshootlari va boshqa infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish hamda texnik jihatdan qayta qurollantirish;

2. ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish;

3. inson resurslarini boshqarish tizimini optimallashtirish va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.

Mazkur chora-tadbirlar zamonaviy boshqaruv texnologiyalariga o'tishni taqozo etadi. Rossiyalik iqtisodchi olim A.I. Amoshaning ta'kidlashicha, mahalliy korxonalarda biznes-jarayon yondashuvlarini ajratish, o'ziga xos va nisbatan yordamchi aktivlarni aniqlash nafaqat mumkin, balki zarurdir. Masalan, “avtomobil ishlab chiqarishda ustaxona ijaraga olinishi, ehtiyot qismlar subpudratchilardan yetkazib berilishi, yig'ish jarayoni pudratchiga topshirilishi, sotish esa dilerlik tarmog'i orqali amalga oshirilishi mumkin”¹⁵.

Shunday qilib, noaniq jarayonlarni aniqlash va so'ngra ularni yo'q qilish mahalliy yirik biznes uchun asosiy rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi. Natijada paydo bo'ladigan yangi ishlab chiqarish va boshqaruv tuzilmasi “eskirgan ishlab chiqarish aktivlari va biznes stereotiplari bilan bog'liq bo'lmaydi... Shu tarzda amalga oshirilgan yirik korxona tuzilmasidagi o'zgarishlar mikro, mezo va hatto makroiqtisodiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin”¹⁶. O'zbekistonda bunday tarkibiy o'zgarishlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda va iqtisodiyot ularni samarali amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar hamda metodik yondashuvlarga muhtoj.

Kichik biznes ham taklif etilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning faol va muhim ishtirokchisiga aylanishi lozim. Kichik va yirik biznes subyektlari o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasining rivojlanishi katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahalliy kichik biznes korxonalarning aksariyati ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritishini inobatga olgan holda, hozirgi sharoitda subpudratchilik mexanizmlarini rivojlantirish ma'lum tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etishni talab qiladi. Moliyaviy barqarorlik darajasini mustahkamlash va kichik biznesning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu bois katta kapital talab qilmaydigan, bosqichma-

15. Амоша А.И. Бизнес-процессное управление и его возможное воздействие на украинскую угольную промышленность / А.И. Амоша, О.В. Витушко // Экономика промышленности. – 2011. – № 1 (53). – С. 4.

16. Амоша А.И. Бизнес-процессное управление и его возможное воздействие на украинскую угольную промышленность / А.И. Амоша, О.В. Витушко // Экономика промышленности. – 2011. – № 1 (53). – С. 6.



bosqich joriy etiladigan hamkorlik shakllari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur jihatlar O'zbekistonda outsorsingni rivojlantirish uchun muayyan obyektiv shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi.

Autsorsing XX-asr o'rtalarida shakllangan bo'lib, 1980-yillarda faol rivojlandi va 1990-yillardan boshlab korxonalar tuzilmasi hamda faoliyatini optimallashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'landi. Optimallashtirish har qanday tizimning eng samarali holatiga erishishni anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan bu doimiy xarajatlarni sharoitida yuqori natijalarga erishish yoki xarajatlarni qisqartirish orqali zarur natijani ta'minlashni anglatadi.

"Autsorsing" atamasi inglizcha "outsourcing" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tashqi manbalardan foydalanish" degan ma'noni anglatadi. Rivojlangan mamlakatlarda outsorsing xizmatlari hajmining tez sur'atlarda o'sishi uning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Zamonaviy outsorsing ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, uni kamida uchta nuqtai nazardan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

Birinchisi, outsorsing sanoat kooperatsiyasining samarali shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi, outsorsing boshqaruv texnologiyasi sifatida korxona faoliyatini takomillashtirish vositasi hisoblanadi.

Uchinchisi, outsorsing korxona resurslaridan oqilona va samarali foydalanish usuli sifatida talqin etiladi.

Mazkur yondashuv asosida outsorsingdan foydalanishning korxonalar va umuman iqtisodiyot uchun ijobiy natijalarini tizimli ravishda guruhlash mumkin (3-jadval).

3-jadval. Autsorsingdan foydalanishning ijobiy oqibatlarini tavsiflash¹⁷

Autsorsingdan foydalanishning ijobiy oqibatlari		
ishlab chiqarish shakllari sifatida kichik va yirik biznes o'rtasidagi hamkorlik	boshqaruv texnologiyasi sifatida	korxona resurslaridan oqilona foydalanish usuli sifatida
Kichik biznesni rivojlantirish imkoniyatlari. Yirik korxonalar uchun asosiy bo'lmagan funksiyalardan xalos bo'lish imkoniyatlari. Mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sifatini yaxshilash. Korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish.	Boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish. Boshqaruv va qaror qabul qilish samaradorligini oshirish. Boshqaruv imkoniyatlarini cheklash. Ichki nizolar sonini kamaytirish.	Ikki lamchi funksiyalarni bajarish uchun ishlatilgan resurslar, xodimlar va vaqtni bo'shatish. Asosiy faoliyatni rivojlantirish uchun resurslardan samarali foydalanish. Boshqa joylarda joylashgan resurslarni ham o'z ichiga olgan holda arzonroq resurslardan foydalanish.

Boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish jarayonga asoslangan yondashuv va korxona biznes jarayonlarini aniqlash bilan bog'liq. Jarayonga asoslangan yondashuvning natijasi "korxonaning maksimal samaradorligiga erishish uchun jarayonlar zanjirini aniqlash va ushbu jarayonlarni boshqarish"dir¹⁸.

Biznes-jarayon yondashuvlaridan foydalanish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Mulkdorlar va menejerlar tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishda tizimli o'zgarishlar zarurligini e'tirof etish;
2. "Bor holatda" tamoyiliga asoslanib, korxona ichidagi mavjud biznes-jarayonlarni aniqlash va tavsiflash;
3. "Zaruratga qarab" tamoyiliga tayangan holda yangi va samarali biznes-jarayonlarni ishlab chiqish;
4. Biznes-jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish;
5. Biznes-jarayonlarni optimallashtirishda kichik biznes subyektlarini jalb etgan holda ishlab chiqarish kooperatsiyasi (autsorsing)dan foydalanish.

Muayyan korxona darajasida yangi boshqaruv texnologiyalariga o'tish jarayonida ayrim tashkiliy va psixologik qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ulardan biri – korxona egalari va menejerlari tomonidan zarur o'zgarishlarni boshlashga nisbatan yetarli motivatsiya shakllantirish masalasidir.

Yirik korxona egalari milliy iqtisodiy siyosatga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega bo'lib, ular tomonidan modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Menejerlar esa ko'pincha mavjud boshqaruv amaliyotlarini saqlab qolishga intiladilar, bu esa yangilanish jarayonlarini bosqichma-bosqich va izchil olib borishni talab qiladi.

Ikkinchi muhim jihat shundan iboratki, yangi boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va ularning real natijalarini ko'rish o'rtasida ma'lum vaqt oralig'i mavjud bo'ladi. Ushbu davrda biznes-jarayonlarni boshqarish bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb etish, xodimlarni qayta tayyorlash va ularning yangi tizimga moslashuvini ta'minlash zarur. Ishlab chiqarish tuzilmasi va boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar ayrim hollarda kadrlar tarkibining qayta shakllanishini taqozo etadi. Shu bois qayta tayyorlash va yangi ish o'rinlarini yaratish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir.

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

¹⁸ Тохтамыш Т.А. Процессный подход к управлению малыми предприятиями / Т.А. Тохтамыш // Бизнес-информ. – 2010. – № 1. – С. 55-57.



Uchinchi jihat shundan iboratki, ayrim korxonalarda biznes-jarayon yondashuvi mazmunan chuqur joriy etilmay, ishlab chiqarish jarayonining oddiy tarkibiy bo'linishlari bilan cheklanib qolmoqda. Natijada kutilgan samaradorlik o'rniga, ayrim hollarda funksiyalarning takrorlanishi, axborot oqimlarining murakkablashuvi kuzatiladi. Bu esa biznes-jarayonlarni kompleks va tizimli yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ayrim funksiyalarni outsorsing asosida tashqi ijrochilarga topshirish jarayonida korxonalar mavjud bozor aloqalarining qayta shakllanishiga duch keladi. Bunday transformatsiya jarayonlariga oldindan tayyorgarlik ko'rish va risklarni baholash muhim hisoblanadi. Shunga qaramay, yirik mahalliy korxonalarda biznes-jarayon yondashuvlarini rivojlantirishga obyektiv ehtiyoj mavjud bo'lib, ayrim subyektiv omillar ushbu jarayonlarni sekinlashtirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, O'zbekistonda yirik biznes iqtisodiy tizimning tayanch omillaridan biri hisoblanadi. Mavjud tarkibiy va institutsional jarayonlarni yanada takomillashtirish orqali yirik biznes faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin. Milliy iqtisodiyot kichik biznes bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yirik korxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish va ularning raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun sezilarli salohiyatga ega.

Kichik sanoat korxonalarning son jihatidan cheklanganligi hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining yetarli darajada keng emasligini inobatga olgan holda, outsorsing hamkorlikning istiqbolli va moslashuvchan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizm zamonaviy O'zbekiston kichik biznesining imkoniyatlariga mos keladi hamda yirik korxonalar ehtiyojlarini samarali qondirishga xizmat qiladi. Outsorsing yirik korxonalar resurslaridan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va asosiy faoliyat yo'nalishlariga e'tiborni jamlash imkonini beradi.

Autsorsingdan samarali foydalanish uchun yirik korxonalarda biznes-jarayonlarga asoslangan boshqaruv yondashuvlarini joriy etish muhimdir. Bu orqali boshqaruv tizimi takomillashadi, ishlab chiqarish va axborot oqimlaridagi "to'siqlar" aniqlanib, ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Natijada ichki muvofiqlashtirish darajasi oshadi, korporativ boshqaruv mexanizmlari mustahkamlanadi hamda resurslar, vaqt va boshqaruv salohiyati ustuvor strategik maqsadlarga yo'naltiriladi.

Global biznes amaliyoti outsorsingning iqtisodiy va institutsional afzalliklarini yaqqol namoyon etadi. Institutsional nuqtai nazardan, kichik biznes bilan hamkorlikni kengaytirish ularni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy tizimdagi institutsional bo'shliqlarni bosqichma-bosqich kamaytirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatini to'liqroq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Yirikbiznesni yanadata takomillashtirish, kichik biznes bilan kooperativ va hamkorlik aloqalarini chuqurlashtirish, outsorsingdan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda boshqaruv jarayonlarini zamonaviylashtirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston yirik biznesining izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Biznes-jarayon yondashuvlariga asoslangan zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini hamda outsorsingdan (ishlab chiqarish kooperatsiyasi va boshqaruv texnologiyasi shakli sifatida) foydalanish zaruratini e'tirof etish va amaliyotga joriy etish.

2. Tashkiliy o'zgarishlar natijasida mehnat bozorida shakllanayotgan resurslardan samarali foydalanish, jumladan, ishlab chiqarish kooperatsiyasi doirasida kichik korxonalarda yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish.

3. Kichik biznes bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi orqali ularning barqaror rivojlanishini rag'batlantirish va iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 28-avgust kuni tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8397>
2. Амоша А.И., Витушко О.В. Бизнес-процессное управление и его возможное воздействие на украинскую угольную промышленность // Экономика промышленности. – 2011. – № 1 (53). – С. 4–12.
3. Аникин Б.А. Аутсорсинг: создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций. – М.: Инфра-М, 2003. – 192 с.
4. Андрюшкевич О.А., Денисова И.М. Особенности современного развития аутсорсинга в России // ЦЭМИ. Анализ и моделирование экономических процессов. – 2011. – Вып. 8. – URL: <http://www.cemi.rssi.ru/publication/e-publishing/sborn11.pdf>
5. Брюховецкая Н.Е., Егиазарова К.Ю. Некоторые аспекты экономического сотрудничества крупного и малого бизнеса в Украине // Бизнес-Информ. – 2011. – № 7 (2). – С. 18–20.



6. Булеев И.П., Брюховецкая Н.Ю. Предприятия и новые организационные структуры в системе социально-экономических отношений общества // Экономика промышленности. – 2009. – № 2. – С. 3–14.
7. Булеев И.П., Брюховецкая Н.Ю. Институты социальной ответственности как фактор стабильности экономики // Наукові праці ДонНТУ. Серія економічна. – 2009. – Вип. 31-1. – С. 162–169.
8. Паппэ Я.Ш., Галухина Я.С. Российский крупный бизнес. Первые 15 лет: экономические хроники. – М.: ГУ-ВШЭ, 2009. – 424 с.
9. Пожужева Т.О. Ограничение монополизма и проблемы развития конкуренции в Украине // Экономика промышленности. – 2010. – № 31 (49). – С. 25–30.
10. Педько А.Б. Собственность, контроль и конфликт интересов в акционерных обществах. – Х.: ИД «ИНЖЭК», 2008. – 448 с.
11. Тараш Л.И. Модель стоимостной оценки эффективности управления акционерной собственностью // Экономика промышленности. – 2006. – № 1 (32). – С. 125–137.
12. Репин В.В. Бизнес-процессы компании: построение, анализ, регламентация. – М.: РИА «Стандарты и качество», 2007. – 240 с.
13. Варналий З., Дрига С. Кооперация больших и малых предприятий как условие повышения конкурентоспособности предпринимательства в Украине // Вестник Киевского торгового-экономического университета. – 2010. – № 1. – С. 14–20.
14. Ляшенко В.И., Кошелева Е.Г., Толмачева А.Ф. Механизмы регулирования развития малого предпринимательства в Украине: монография. – Донецк: Юго-Восток, 2008. – 495 с.
15. Ляшенко В.И., Толмачева А.Ф. Информационный аутсорсинг в системе инфраструктуры поддержки малого предпринимательства // Проблемы повышения эффективности функционирования предприятий различных форм собственности. – Донецк: ИЭП НАН Украины, 2006. – С. 111–134.
16. Попов А.В. Синергетическая парадигма и институты долгосрочной лояльности в организации маркетинговой деятельности промышленного предприятия // Економіка розвитку. – 2011. – № 4 (60). – С. 72–77.
17. Черемисин Д.В. Аутсорсинг как элемент современного хозяйственного механизма: теоретический аспект: дис. ... канд. экон. наук. – М.: Финансовая академия при Правительстве РФ, 2005. – 158 с.
18. Лемещенко П.С. Институты как условие и результат инновационного развития экономики // Инновационное развитие экономики России: национальные задачи и мировые тенденции: материалы междунар. науч. конф. – М.: МГУ им. М.В. Ломоносова, 2008. – С. 8. – URL: <http://www.econ.msu.ru/cmt2/lib/a/1158/file/Lemechenko-31.pdf>
19. Тимошук А. Статистика против великого бизнеса // Економічна правда. – 14.02.2011. – URL: <http://www.epravda.com.ua/publication/2011/02/14/271198/>
20. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – URL: <https://www.stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>